O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NUTQ VA MULOQOT FE’LLARIDA DARAJALANISH
GRADUONYMY IN SPEECH COMMUNICATION VERBS IN UZBEK AND ENGLISH VERBS
ГРАДУОНИМИЯ ГЛАГОЛОВ РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Otaboyeva Mazmuna Raximovna
Qo‘qonDPI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tilida nutq va muloqot fe’llarida darajalanish muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tilidagi nutq fe’llari va ingliz tilidagi muloqot fe’llaridan hosil qilingan darajalanish qatorlarini chog‘ishtirilgan. Har ikki tillarda yuqoridagi keltirilgan semantik kategoriyalarga mansub leksemalarning izohlari keltirilib, ularga asoslangan holda darajalanish qatorlari hosil qilingan.

Kalit so‘zlar: graduonimiya, darajalanish qatori, nutq fe’llari, muloqot fe’llari, izohli lug‘at, sinonim.

O‘zbek tilidagi nutq fe’llari ifodalagan ma’nolarni ingliz tilidagi aloqa va muloqotni anglatuvchi fe’llar ham bildiradi. O‘zbek tilidagi nutq fe’llari faqat insonning gapirish jarayoni bilan bog‘liq harakatlarni ifodalasa, ingliz tilidagi muloqot fe’llari (communication verbs) nutq bilan bog‘liq fe’llardan tashqari, boshqa aloqa vositalarini ifodalovchi fe’llarni ham o‘z tarkibiga oladi. Masalan, *yozmoq (write), tinglamoq (listen)* kabi. Qolgan aksariyat hollarda nutq bilan bog‘liq fe’llarni ifodalaydi.

O‘zbek tili sinonimlari lug‘atida *gapirmoq* fe’lining *so‘zlamoq, so‘ylamoq* kabi sinonimlari keltirilgan bo‘lib, unda quyidagicha izohlanadi: “Bu so‘zlar *gap aytmoq, so‘z aytmoq* ma’nosini bildiradi. *Gapirmoq – so‘zlamoq, so‘ylamoq* so‘ziga nisbatan keng qo‘llanadi. S*o‘zlamoq*− kitobiy so‘z. *So‘ylamoq*− ko‘proq poeziyada qo‘llanadi”[15]. Izohlardan kelib chiqib, ushbu so‘zlarni ishlatilish ko‘lamiga ko‘ra *so‘ylamoq→so‘zlamoq→gapirmoq* tarzida darajalash mumkin.

O‘zbek tilidagi nutq fe’llari guruhiga mansub *gaplashmoq* fe’li ishtirokida darajalanish qatorlari hosil qilamiz. *Gaplashmoq* fe’liga suhbat jarayonini ifoda etuvchi *suhbatlashmoq. so‘zlashmoq*; suhbatning “qizib” ketishini ifodalovchi *chaqchaqlashmoq, gurunglashmoq, laqillashmoq, otamlashmoq, ulfatlashmoq, hasratlashmoq, dardlashmoq* kabi fe’llarni ma’nodosh qilib keltirish mumkin. Ushbu fe’llar ma’nolaridagi farqlarni aniqlash maqsadida izohli lug‘atga murojaat etamiz.

[15] Ҳожиеа А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. –Тошкент, 1963. – Б.49.

GAPLASHMOQ 1. Suhbatlashmoq; so‘zlashmoq. Nega odamlar gaplashyapti? (S.Zunnunova, “Ko‘k chiroqlar”)

2.O‘zaro kelishmoq, bitishmoq [16]

SUHBATLASHMOQ Yig‘ilishib, o‘zaro gaplashmoq, suhbat qilmoq. Suhbat qurmoq, gurunglashmoq. Fozil odam bilan suhbatlashsang, rohat qilasan.(Oybek, Tanlangan asarlar)

SO‘ZLASHMOQ 1.So‘zlamoq fl.birgalik nisbat. 2.Gapirishmoq, gaplashmoq. Notiqlar o‘n minutdan so‘zlashdi.3. Biror narsa. masala haqida o‘zaro muzakara olib bormoq, gapirishmoq, kelishmoq, bitishmoq. Ta’til to‘g‘risida direktor bilan so‘zlashib qo‘ydim[17].

CHAQCHAQLASHMOQ Xushchaqchaqlik bilan vaqt o‘tkazmoq, suhbatlashmoq.[18]

GURUNGLASHMOQ Qizg‘in suhbatlashmoq, suhbatlashib o‘tirmoq.[145]

LAQILLAMOQ 3. Bo‘lar-bo‘lmas gaplarni qilmoq, lozim bo‘lmagan gaplarni gapirmoq[19].

ULFATLASHMOQ 1. O‘rtoq yoki oshna bo‘lib qolmoq; inoqlashmoq; do‘stlashmoq. 2. Ulfatchilik qilmoq, suhbatlashmoq

OTAMLASHMOQ 1. Hasratlashmoq, yurakdagi dard-alamlarni o‘rtoqlashmoq. U (Umrzoq ota) har gal G‘ani samovarchining hujrasiga tushar, u bilan otamlashib, dardini yozib kelardi. (H.G‘ulom “Mash’al”).

2. Yozilib, miriqib, ko‘ngilli suhbat qilmoq, ulfatlashmoq. Ular mehmonlar ketgandan keyin ham allamahalgacha otamlashib o‘tirishdi. (T.Ashurov Oq ot)[20].

HASRATLASHMOQ Biror qiyinchilik, g‘am, tashvish kabilar haqida o‘zaro gaplashmoq, shunday mazmunli suhbat qurmoq; dardlashmoq[21].

DARDLASHMOQ Bir-biriga ko‘nglidagi g‘amu tashvishlarini, qayg‘uhasratini izhor qilmoq, hasratlashib ko‘ngil yozmoq, hasratlashmoq.

Yuqoridagi izohlardan *so‘zlashmoq, gaplashmoq, suhbatlashmoq* fe’llarining bildirgan ma’nolari orasida graduonimik munosabat mavjud emas, chunki ular bir ma’noni ifodalovchi leksemalar hisoblanadi. Ular darajalanish qatorida bitta pog‘onada joylashtiriladi. Izohi keltirilgan fe’llarning barchasi insonlar orasidagi muloqotni anglatib, *chaqchaqlashmoq, gurunglashmoq, laqillashmoq, otamlashmoq* kabi fe’llarda suhbatning uzoqroq davom etganligi ottenkasi mavjud. Ular yordamida

[16] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Г” ҳарфи. – Б.486. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[17] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “С” ҳарфи. – Б.606, 610. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[18] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ч” ҳарфи. – Б.470. www.ziyouz.com kutubxonasi. [145] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Г” ҳарфи. – Б.528. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[19] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Л” ҳарфи. – Б.492. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[20] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “О” ҳарфи. – Б.153. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[21] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Х” ҳарфи. – Б.514. www.ziyouz.com kutubxonasi.

suhbatning davomiyligi asosida *so‘zlashmoq/gaplashmoq/ suhbatlashmoq → gurunglashmoq → laqillashmoq → otamlashmoq → hasratlashmoq/ dardlashmoq* kabi darajalanish qatorini tuzish mumkin.

Chaqchaqlashmoq. gurunglashmoq, otamlashmoq fe’llarida xursandchilik bilan gaplashish ma’nosi mavjud. Ular ishtirokida suhbatning “qizg‘inlashib” borishiga ko‘ra: *so‘zlashmoq/gaplashmoq/suhbatlashmoq → chaqchaqlashmoq→ gurunglashmoq→ otamlashmoq/ulfatlashmoq* graduonimik qatori hosil qilinadi. SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, *otamlashmoq va ulfatlashmoq* so‘zlari qo‘llanilish doirasiga ko‘ra gender xususiyatga ega bo‘lib, faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

Hasratlashmoq va dardlashmoq fe’llarining izohlaridan ularda g‘amqayg‘u kabilar haqida gaplashish ma’nosi anglashiladi. Suhbat davomiyligida qayg‘u ottenkasining ortib borishiga ko‘ra ham fe’llarni darajalash mumkin: *so‘zlashmoq/gaplashmoq/suhbatlashmoq → ko‘nglini yozmoq → hasratlashmoq/ dardlashmoq.*

Gaplashmoq fe’lining suhbatlashishdan tashqari *muzokara olib bormoq, gapirishmoq, kelishmoq, bitishmoq* kabi ma’nolari hisobiga bu so‘z ishtirokida biron-bir masalani hal qilish bosqichlari ifodalasiga ko‘ra *gaplashmoq→kelishmoq→bitishmoq* graduonimik qatorini ham hosil qilish mumkin.

Ulfatlashmoq fe’li suhbatlashish, gaplashish ma’nolaridan tashqari *do‘stlashmoq, inoqlashmoq* kabi fe’llar bilan ma’no jihatdan farqlanadi va ularda “yaqinlik” belgisining kuchayib borishi asosida *tanishmoq→ do‘stlashmoq → inoqlashmoq → ulfatlashmoq* tarzidagi graduonimik munosabatlar ifodalanadi. SHu o‘rinda aytish lozimki, *ulfatlashmoq* va *otamlashmoq* fe’llari gender xususiyatiga ega bo‘lib, odatda erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ingliz tilida *gaplashmoq* so‘zining tarjimasi sifatida *talk* so‘zini olish mumkin, uning sinonimlari bilan birga darajalanish qatori hosil qilamiz. Ushbu so‘zga ma’nodosh so‘zlarning izohlarini ham berib o‘tamiz.

TALK – speak in order to give information or express ideas or feelings – ma’lumot berish yoki fikr va tuyg‘ularini ifodalash maqsadida gaplashmoq.

Synonyms: speak, chat, chatter, gossip, prattle, babble, rattle on, blather, inf. yak, gab, jaw, chew the fat.

***speak** – say something in order to convey information or to express a feeling – ma’lumot yetkazish yoki tuyg‘ularini ifodalash maqsadida nimadir demoq; **chat** – talk in a friendly and informal way – do‘stona va norasmiy tarzda suhbatlashmoq; **chatter** – talk informally about unimportant matters – muhim bo‘lmagan masalalar haqida norasmiy ravishda suhbatlashish; **gossip** – engage in gossip engage in gossip – g‘iybat bilan band bo‘lmoq; **prattle** – talk at length in a foolish or inconsequential way – ahmoqona va*

muhim bo‘lmagan usulda suhbatini davom ettirish; ***babble*** *– talk rapidly and continuously in a foolish, excited, or incomprehensible way – ahmoqona, xursand bo‘lib yoki tushunib bo‘lmaydigan tarzda tez-tez va uzoq gapirish;* ***rattle on*** *– talk rapidly and at length, especially in an inane way – asosan behuda tez-tez va uzoq gaplashish;* ***blather*** *– talk in a long-winded way without making very much sense –*

unchalik his qilmasdan, uzoq nafasda gaplashish; ***yak*** *– talk at length about trivial or boring subjects – arzimas yoki*

zerikarli masalalar haqida uzoq gaplashish;

gab *– talk at length, typically about trivial matters – odatda arzimas*

narsalar haqida uzoq gaplashish; ***jaw*** *– talk at length; chatter – uzoq gaplashish; laqilllashish;* ***chew the fat*** *– chat in a leisurely and prolonged way*[22] *– shoshilmay va*

uzoq suhbatlashish; dildan suhbatlashish.

Keltirilgan izohlarga ko‘ra, quyidagi darajalanish qatorlari hosil

qilish mumkin:

- suhbatlashishning davomiyligiga ko‘ra: *talk/speak →prattle→jaw→*

chew the fat;

- muhim bo‘lmagan narsalar haqida suhbatlashish davomiyligiga ko‘ra:

chatter→ gossip→ prattle →babble/rattle on→ yak/gab.

Garchi muhim bo‘lmagan narsalar haqida suhbatlashish davomiyligiga ko‘ra hosil qilingan darajalanish qatorida *talk* so‘zi ishtirok etmagan bo‘lsa-da, unga ma’nodosh so‘zlar orasidan ushbu qator shakllantirildi. CHunki *talk* so‘zi ifodalagan ma’no ijobiy bo‘lib, muhim bo‘lmagan narsalar haqida yoki behuda gaplashish ma’nosida ushbu darajalanish qatoriga kiritish mumkin emas.

O‘zbek tilida ham muhim bo‘lmagan narsalar haqida suhbatlashish bo‘yicha darajalanish qatori tuziladigan bo‘lsa, *gaplashmoq* fe’lini ushbu qatorga qo‘shish unchalik ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. CHunki bu fe’l odatda, ijobiy ma’noda qo‘llaniladi. Ushbu graduonimik qatorni quyidagicha berish mumkin: *laqillamoq→g‘iybat qilmoq→yomonlamoq.* Bu qatordagi so‘zlar asosan salbiy ma’noda qo‘llaniladi.

Ingliz tilidagi *talk* fe’lining izohlari orasidan suhbatning “qizg‘inlashib” borishiga ko‘ra darajalanish qatorini hosil qilish imkoni mavjudligini aniqlash maqsadida o‘zbek tilidagi *gurunglashmoq, chaqchaqlashmoq, otamlashmoq* fe’llarining inglizcha tarjimasini lug‘atlarda berilishini ko‘rib chiqamiz:

Gurunglashmoq – talk amicable in a friendly fashion[23]

CHaqchaqlashmoq – berilmagan; chaqchaq - merry, chaqchaq qilmoq – be merry, have fun[24].

[22] Oxford Dictionare of English and Concise Thesaurus.

[23] Бутаев Ш. Кўрсатилган луғат. – Б.796.

[24] Бутаев Ш. Кўрсатилган луғат. – Б.1010.

Otamlashmoq – to have heart-to-heart talk[25].

Yuqorida berilgan ma’lumotlarda *gurunglashmoq, chaqchaqlashmoq, otamlashmoq* fe’llarining o‘rnini bosuvchi ma’nodosh leksemalar emas, ularga ingliz tilida izohlar ham berildi. SHu sababli ingliz tilida suhbatning “qizg‘inlashib” borishiga ko‘ra darajalanish qatori tuzishning imkoni bo‘lmadi.

Talk fe’lining izohlarida o‘zbek tiliga o‘xshab suhbat davomiyligida qayg‘u ottenkasining ortib borishini ifoda etuvchi ma’nodoshlari berilmagan. SHuning uchun *dardlashmoq* va *hasratlashmoq* fe’llarining tarjimalariga e’tibor qaratamiz:

Dardlashmoq – commiserate[26].

Commiserate – express or feel sympathy or pity, sympathize – rahmdillik yoki achinishni his qilish yoki ifodalash, hamdardlik bildirish.

Yuqoridagi izohlardan ko‘rinib turibdiki, *commiserate* fe’lida gaplashish ma’nosidan ko‘ra, ko‘proq his-tuyg‘uni ifoda etishi bois, nutq fe’li emas tafakkur fe’llari guruhiga mansub. Demak, ingliz tilida ushbu leksemani o‘zbek tilidagi kabi *suhbatlashmoq, dardlashmoq, hasratlashmoq* tarzida suhbat davomiyligida qayg‘u ottenkasining ortib borishiga ko‘ra darajalanish qatoriga qo‘shish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyea A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –Toshkent, 1963.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Oxford Dictionare of English and Concise Thesaurus
4. Orifjonova SH. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996.
5. Djumabayeva J. O‘zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
6. Bozorov O O‘zbek tilida darajalanish. f.f.doktori dissertatsiya. T., 1997

[25] Бутаев Ш. Кўрсатилган луғат. – Б.890.
[26] Бутаев Ш. Кўрсатилган луғат. – Б.764.